

O‘quv-uslubiy ishlar

Kafedrada "Pediatriya" fani quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitiladi: 3-4-5-kurs "Pediatriya" fakulteti va 3-4- kurs "Davolash ishi " fakulteti, 3-kurs "Tibbiy-profilaktika ishi," va 3-kurs "Tibbiy biologiya"

"Bolalar kasalliklari propedevtikasi" fani quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitiladi: 2-3-kurslar "Pediatriya ishi," "Davolash ishi."

"Pediatriya. Med Genetika" fani quyidagi yo‘nalishlarda o‘qitiladi: 3-4-kurs "Stomatologiya ishi,"

"Pediatriya. Bolalar kasalliklarida xalq tabobati" fani quyidagi yo‘nalishda o‘qitiladi: 3-kurs "Xalq tabobati."

" Pediatriyada hamshiralik ishi " fani quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitiladi: 3-kurs "Oliy hamshiralik ishi"

" T.F.Bala kutimi" fani quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitiladi: 2-kurs "Oliy hamshiralik ishi" 2-kurs "Pediatriya."

" Tibbiyot kasbiga kirish" fani quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitiladi: 1-kurs "Pediatriya" 1-kurs "Davolash ishi"

" Ambulator-poliklinik pediatriya " fani quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha o‘qitiladi: 6-kurs "Pediatriya" 6-kurs "Davolash ishi"

Kafedrada 1 nafar 1-kurs magistratura rezidenti va 3 nafar 1- kurs klinik ordinatorlari tahsil olmoqda.



Talabalarning ta'lim sifatini oshirish maqsadida o'quv jarayoni O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlangan dastur asosida olib boriladi. "Pediatriya" "Bolalar kasalliklari propedevtika" "Ambulator poliklinik pediatriya" "Pediatriyada hamshiralik ishi" fanlari bo'yicha ma'ruzalar (qoraqalpoq, o'zbek va rus tillarida) va har bir ma'ruza uchun test to'plamlari tayyorlandi.

O'qitish kurs bo'yicha quyidagi tasdiqlangan hujjatlar

asosida amalga oshiriladi:

- Davlat standarti;
- O'quv rejasi;
- Ta'lim ishchi dasturi;

Mashg'ulotlar davomida quyidagilar mavjud:

Kafedra Respublika bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Bolalar mintaqaviy tibbiy reabilitatsiya markazida joylashgan bo'lib, unda nazariy va amaliy mashg'ulotlar va o'quv hujjatlari bilan ishlash amalga oshiriladi.

Kafedra zamonaviy texnikalar, jumladan, stol kompyuterlari (5), noutbuk (1), multimedia uskunalari (2) va interaktiv doska (3) bilan jihozlangan bo'lib, bu raqamli texnologiyalardan ta'lim faoliyatida samarali foydalanish imkonini beradi. O'quv mashg'ulotlari va ma'ruzalarda barcha texnik vositalar faol qo'llaniladi.

Institut rahbariyati va tibbiyot muassasalari bosh shifokorlari o'rtasida tuzilgan shartnomalarga muvofiq, Respublika bolalar ko'p tarmoqli tibbiyot markazi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Bolalar mintaqaviy tibbiy reabilitatsiya markazining nevrologiya, pulmonologiya, kardiologiya, gematologiya, travmatologiya, fizioterapiya bo'limlarida pediatriya, davolash ishi, stomatologiya, tibbiy biologiya, xalq tabobati va tibbiy profilaktika fakultetlarining I-VI kurs talabalari bemorlarni subektiv va obektiv tekshirish, palpatsiya, perkussiya, auskultatsiya, balki bemorlarni tashxislash va davolashda faol ishtirok etib, klinik ko'nikmalarni o'zlashtirmoqda.





Shuningdek, kafedra darsliklarni tarjima qilishda ham faol ishtirok etmoqda. Kafedra tomonidan S.A.Raximov, A.R.Isroilov muallifligida "Gospital pediatriya" darsligi qoraqalpoq tiliga tarjima qilindi.

